

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

# №12

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal


# 2025 dekabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari  
08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB<sup>®</sup>  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic  
Resource  
Index  
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS  
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ  
БИБЛИОТЕКА  
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ  
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА  
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 55 sahifa.  
2025-yil, dekabr

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afforovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Botirali Roxataliyevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

RASMIY RIVOJLANISH YORDAMI (OFFICIAL DEVELOPMENT ASSISTANCE, ODA) ORQALI O'ZBEKISTONDA DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISH (PUBLIC FINANCIAL MANAGEMENT, PFM) TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH .....	24
<b>Pulatov Dilshod Haqberdiyevich, Ulug'ova Maftunabonu To'liqinova</b>	
INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN LEADING WHEAT-PRODUCING COUNTRIES.....	28
<b>Turayeva Gulizahro</b>	
BLOKCHEYN TIZIMLARI UCHUN XESH FUNKSIYALARNI TANLASH MEZONLARI VA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI .....	32
<b>Abduraximov Baxtiyor, Allanov Orif, Turdibekov Baxtiyor</b>	
RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI ASOSIDA KICHIK KORXONALARDA ISHLAB CHIQRISHNI SAMARALI TASHKIL ETISH MODELLARI: NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA .....	39
<b>Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li</b>	
ISSIQLIK AKKUMULYATORINING RAZRYADLANISH JARAYONIDA SUYUQLIK QATLAMLARIDA HARORAT TAQSIMLANISHINING BIR O'LCHOVLI MODEL I .....	43
<b>B.A. Hikmatov, M.S. Mirzayev</b>	
ISL OM MOLIYASI TAMOYILLARI ASOSIDA YASHIL LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	49
<b>Safarova Nasiba Gulmurod qizi</b>	



# ISLOM MOLIYASI TAMOYILLARI ASOSIDA YASHIL LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH IMKONIYATLARI

**Safarova Nasiba Gulmurod qizi**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, assistent

Email: [n.safarova@tsue.uz](mailto:n.safarova@tsue.uz)

ORCID: 0009-0002-1923-7502

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada investitsiya loyihalarini moliyalashtirish jarayonida islomiy moliya prinsiplarining qo'llanish imkoniyatlari, ularning zamonaviy moliyaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirilishi hamda amaliyotga tatbiq etish mexanizmlari atroflicha tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash, risklarni adolatli taqsimlash va real sektorga yo'naltirilgan investitsiya oqimini oshirishga xizmat qiluvchi shariatga mos moliyaviy instrumentlarning nazariy hamda amaliy jihatlari o'rganiladi. Maqola natijalari investitsiya siyosatini rivojlantirish, barqaror moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish hamda O'zbekiston sharoitida islomiy moliya bozorini kengaytirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflarni taqdim etadi.

**Kalit so'zlar:** islom moliyasi, barqaror moliya, yashil obligatsiya, yashil sukuk, vaqf, murabaha, musharaka, mudaraba, yashil investitsiyalar.

**Abstract.** This article examines the opportunities for applying Islamic finance principles in the financing of investment projects, their integration with modern financial technologies, and the mechanisms of their practical implementation. The study explores the theoretical and practical aspects of Shariah-compliant financial instruments that contribute to sustainable economic development, fair risk sharing, and increased investment flows directed toward the real sector. The results of the article provide scientifically grounded approaches for improving investment policy, strengthening sustainable financing mechanisms, and expanding the Islamic finance market in the context of Uzbekistan.

**Keywords:** Islamic finance, sustainable finance, green bonds, green sukuk, waqf, murabaha, musharakah, mudarabah, green investments.

**Аннотация.** В данной статье всесторонне анализируются возможности применения принципов исламских финансов в процессе финансирования инвестиционных проектов, их интеграция с современными финансовыми технологиями, а также механизмы практического внедрения. В ходе исследования изучаются теоретические и практические аспекты шариат-соответствующих финансовых инструментов, которые способствуют устойчивому экономическому развитию, справедливому распределению рисков и увеличению инвестиционных потоков в реальный сектор. Результаты статьи предлагают научно обоснованные подходы к совершенствованию инвестиционной политики, развитию механизмов устойчивого финансирования и расширению рынка исламских финансов в условиях Узбекистана.

**Ключевые слова:** исламские финансы, устойчивые финансы, зелёные облигации, зелёный сукук, вакф, мурабаха, мушаракат, мудараба, зелёные инвестиции.

## KIRISH

Bugungi global iqtisodiy tendensiyalar yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini yanada jadallik bilan rivojlantirmoqda. Iqtisodiy yuksalishni ekologik barqarorlik bilan uyg'unlashtirish esa davlatlar oldida turgan eng muhim ustuvor yo'nalishlardan biriga aylanib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan, islom moliyasi tamoyillari asosida ekologik loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini chuqur o'rganish O'zbekiston va boshqa mamlakatlar uchun keng ko'lami yangi imkoniyatlar, innovatsion yechimlar hamda barqaror rivojlanishga xizmat qiluvchi moliyaviy instrumentlarni yaratish imkonini beradi. Islom moliyasining mazmun-mohiyatini chuqur anglash hamda uni iqtisodiy amaliyotga ilmiy asoslangan holda joriy etish barqaror rivojlanish ko'rsatkichlariga erishishda mustahkam tayanch vazifasini bajaradi.



Islomiy moliya — shariat tamoyillariga asoslangan, aktivlarga tayanadigan, axloqiy mezonlarga mos, ekologik va ijtimoiy mas'uliyatni qo'llab-quvvatlovchi samarali moliyaviy tizimdir. Ushbu tizim risklarning adolati va o'zaro manfaatli tarzda taqsimlanishini ta'minlab, moliya sektori bilan real iqtisodiyot o'rtasidagi uyg'unlikni mustahkamlaydi. Shuningdek, islomiy moliya investitsiya oqimlarining faqat iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan foydali, barqaror hamda shariatga mos yo'nalishlarga yo'naltirilishini rag'batlantiradi. Moliyaviy operatsiyalarning real iqtisodiy mazmunga ega bo'lishi tizimning shaffofligini kuchaytiradi, innovatsion ekologik loyihalarni qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini kengaytiradi va iqtisodiy o'sishning yangi sur'atlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois islomiy moliya tamoyillari barqaror rivojlanish g'oyalari hamda ekologik yo'nalishdagi moliyalashtirish bilan tabiiy uyg'unlik kasb etadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mazkur yo'nalishda mahalliy tadqiqotchilar tomonidan bir qator ilmiy ishlar e'lon qilingan bo'lib, ular islomiy moliya instrumentlarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirishdagi imkoniyatlarini turli jihatlarida yoritadi. Jumladan, O. Haydarovning "Investitsiya loyihalarini islom moliya instrumentlari orqali moliyalashtirish yo'llari" nomli maqolasida musharaka, mudaraba, murabaha va sukuk kabi shariatga mos moliyaviy vositalar yordamida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlari tahlil qilingan.[5]

Shuningdek, M. Komilovning "Islom moliyasi orqali loyihalarni moliyalashtirish tahlili" asarida islomiy moliya instrumentlari orqali loyihalarga mablag' jalb qilishning o'ziga xos jihatlari, ularning an'anaviy moliyadan farqlari hamda adolat va mas'uliyat tamoyillariga asoslangan afzalliklari ilmiy asosda ko'rib chiqilgan.[2]

Adabiyotlarda islom moliyasi, xususan, green/islamic finance instrumentlarini joriy etish bo'yicha mavjud tizimli masalalar ham keng muhokama etilgan. Masalan, Sh. Gulyamovning "Islom darchalari asosida moliyalashtirishni joriy etish istiqbollari" nomli maqolasida me'yoriy-huquqiy baza rivoji, bank-moliyaviy institutlarning tayyorgarlik darajasi, moliyaviy inklyuzivlikning kengayishi, risklarni boshqarishning samarali mexanizmlari hamda bozor talabining shakllanishi kabi omillar yoritib berilgan.[1]

N. Sattarovning "Exploring the Potential of Islamic Finance in Uzbekistan" nomli tadqiqotida esa islom moliyasining O'zbekiston sharoitida yashil iqtisodiyot bilan uyg'unlashuvi tahlil qilinadi. Muallif islomiy moliya institutsiyalarining moliyaviy inklyuzivlikni oshirish, halol investitsiyalarni jalb qilish va yangi moliyalashtirish kanallarini shakllantirishdagi salmoqli rolini alohida ta'kidlaydi.[4]

Bundan tashqari, U. Xalikovning "Mamlakat iqtisodiyotini islom moliya instrumentlari orqali rivojlantirish istiqbollari" nomli maqolasida islomiy moliya vositalarini keng joriy etish, moliyaviy resurslarni diversifikatsiya qilish hamda investitsiya oqimini oshirish imkoniyatlari kompleks yondashuv asosida tahlil etilgan.[3]

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda islom moliyasi tamoyillari asosida yashil loyihalarni moliyalashtirishning kengayib borayotgan imkoniyatlarini aniqlash va ushbu yo'nalishda amaliy, innovatsion tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot jarayonida sifatli va miqdoriy tahlil usullarining uyg'un qo'llanishi mazkur yo'nalish bo'yicha ilmiy xulosalarning yanada puxta va kompleks shakllanishiga xizmat qiladi.

Nazariy bosqichda islom moliyasi, yashil moliya va barqaror rivojlanish konseptlariga oid ilg'or ilmiy qarashlar, shuningdek, mahalliy hamda xalqaro manbalardagi zamonaviy yondashuvlar chuqur o'rganilib, ularning amaliy qiymati yoritiladi. Empirik bosqichda O'zbekiston tajribasi rivojlangan davlatlar amaliyoti bilan solishtiriladi va ekspert interv'yulari orqali ushbu sohadagi yangi imkoniyatlar, joriy etilayotgan mexanizmlarning ustun jihatlari hamda ularning barqaror rivojlanishga qo'shayotgan hisssasi aniqlanadi.

Analitik bosqichda shariatga mos moliyaviy instrumentlarning yuqori samaradorlik potentsiali, risklarni ilmiy asoslangan tarzda boshqarish mexanizmlari hamda ijtimoiy va ekologik foydalilik darajasining kuchayishi baholanadi. Tadqiqot obyekti — islom moliyasi tamoyillariga mos ravishda moliyalashtiriladigan yashil loyihalar bo'lib, predmeti esa ushbu loyihalarning moliyalashtirish imkoniyatlari va ularning iqtisodiy samaradorligini aniqlashga qaratilgan.

Tadqiqot natijalari moliyaviy barqarorlikni yanada mustahkamlash, ekologik qiymatni oshirish va shariatga mos moliyaviy vositalar orqali barqaror iqtisodiy o'sishga erishishning samarali yo'llarini ochib beradi. Mazkur metodologik yondashuv O'zbekiston sharoitida yashil moliya va islom moliyasi integratsiyasini rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan, amaliy ahamiyatga ega tavsiyalar ishlab chiqish uchun keng imkoniyat yaratadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Islomiy moliya va an'anaviy moliya o'rtasidagi asosiy farqlardan biri shundaki, islom moliyaviy tizimi foizsiz moliyalash tamoyiliga tayanadi. Shariat normalariga ko'ra, pul o'z qiymatini barqaror saqlovchi vosita va iqtisodiy faoliyatni o'lchovchi mezon sifatida qaraladi. Shu bois moliyaviy operatsiyalarda daromad iqtisodiy



faoliyatda bevosita ishtirok etish orqali shakllanadi. Ishtirokchilik tamoyili ushbu tizimning asosiy negizini tashkil etib, iqtisodiy o'sishni real ishlab chiqarish, innovatsiyalar va tadbirkorlik faoliyati orqali qo'llab-quvvatlaydi.

Islomiy moliya o'ziga xos tamoyillari bilan an'anaviy moliyadan farq qiladi. Xatar va noaniqlik darajasining me'yorlashtirilishi islomiy moliyada barqarorlik, shaffoflik va adolatni ta'minlashga xizmat qiladi. Bu yondashuv moliyaviy operatsiyalarning aniq, tushunarli va barcha tomonlar uchun teng manfaatli bo'lishini rag'batlantiradi. Axloqiy me'yorlar bilan uyg'unlik esa investitsiyalarning jamiyatga foyda keltiruvchi, uzoq muddatli barqaror rivojlanishga hissa qo'shuvchi sohalarga yo'naltirilishini qo'llab-quvvatlaydi.

Islomiy moliyalashtirish shakllaridan biri — yashil sukukdir. Yashil sukuk — shariat talablariga mos holda chiqariladigan obligatsiya bo'lib, undan tushgan mablag' ekologik yo'nalishdagi loyihalarni moliyalashtirish, qayta tiklanuvchi energiya, energiya samaradorligi va tabiiy ekotizimlarni muhofaza qilish kabi ijtimoiy-foydali tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltiriladi.

Bu moliyaviy vosita Malayziya va Indoneziyada ekologik tashabbuslarni keng rivojlantirishda samarali qo'llanilayotganini ko'rsatmoqda. Masalan, 2017-yilda Malayziyaning Tadau Solar kompaniyasi tomonidan Sabah hududida 50 Mvt quvvatga ega quyosh fotoelektr stansiyasini moliyalashtirish uchun 59 million dollarlik sukuk emissiyasi chiqarildi. Bu amaliyot Malayziyaning Barqaror va mas'uliyatli investitsiyalar (SRI) me'yori asosida muvaffaqiyatli yo'lga qo'yildi.

Shuningdek, 2018-yilda Indoneziya o'zining ilk suveren yashil sukukini emissiya qilib, issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirish bo'yicha milliy maqsadlarni ilgari surishda yangi bosqichni boshlab berdi. Ushbu sukuk mablag'lari Yogyakarta viloyatidagi Piyungan poligonini modernizatsiya qilish, ekologik muhitni yaxshilash va aholining turmush sifatini oshirishga xizmat qildi. Bu tajribalar yashil sukuklar ekologik va ijtimoiy natijalar yaratishda yuqori samaradorlikka ega ekanini tasdiqlaydi.

Islomiy moliyalashtirishning yana bir muhim shakli — vaqfdir. Vaqf islomiy xayriya tamoyillariga asoslangan bo'lib, ekologik tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashda keng imkoniyatlarga ega. Vaqf aktivlarining jamoat manfaatiga yo'naltirilishi barqaror ekologik muhitni shakllantirish, tabiiy resurslarni asrash va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Indoneziya amaliyoti bunga yorqin misol bo'lib, Bogor Vaqf O'rmoni Jamg'armasi daraxt ekish, eroziyani kamaytirish va ekotizimlarni qayta tiklash yo'nalishlarida samarali natijalar bermoqda.

Bugungi kunda 6 trillion dollarlik islomiy moliya aktivlarining 80 milliard dollari iqlim moliyasiga yo'naltirilgan islom moliyasi sektori uchun yangi strategik imkoniyatlarning mavjudligini ko'rsatadi. Tarixan islomiy moliya ijtimoiy farovonlikni oshirish, ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy adolatni qo'llab-quvvatlashda muhim o'rin tutgan. Hozirgi global sharoit esa islomiy moliya instrumentlarini ekologik barqarorlikni qo'llab-quvvatlovchi shaklda kengaytirish uchun qulay zamin yaratmoqda. Barqaror moliyaga bo'lgan qiziqishning ortib borayotgani islomiy moliyani ekologik va axloqiy mas'uliyatga asoslangan investitsiyalarning yetakchi modeliga aylanishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Shariatga mos innovatsion moliyalashtirish yechimlarini izlayotgan investorlar uchun islom moliyasi tobora kengayib borayotgan istiqbolli bozor sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu jarayon iqlimga oid global maqsadlarni qo'llab-quvvatlashda shariatga mos moliyaviy vositalarni rivojlantirish, aralash moliyalashtirish mexanizmlaridan samarali foydalanish va xalqaro hamkorlikni yanada kengaytirish imkoniyatlarini yaratadi. Hukumatlar, xalqaro tashkilotlar, moliyaviy institutlar, xayriya sektori va xususiy investorlar o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlik islomiy iqlim moliyasining miqyosini yangi bosqichga olib chiqishi mumkin.

Bu yo'nalishdagi eng istiqbolli tashabbuslardan biri — tez orada ishga tushirilishi rejalashtirilayotgan Iqlim, tabiat va rivojlanish uchun Global islomiy moliyalashtirish dasturi (GIFP) hisoblanadi. Ushbu tashabbus islomiy moliya ishtirokchilarining keng jalb etilgan holda ishlab chiqilgani tufayli ekologik loyihalarni moliyalashtirishning yangi imkoniyatlarini ochib beradi va global ekologik tashabbuslarni ilgari surishga hissa qo'shadi.

Islom moliyasi sohasida so'nggi yillarda kuzatilgan muhim yutuqlardan biri — Islom Moliyaviy Xizmatlar Kengashi (IFSB) faoliyatining kengayishidir. Mazkur tashkilot nazorat organlari uchun xalqaro standartlar ishlab chiqib, islomiy banklar, kapital bozorlari va takaful segmentlarini qamrab olgan holda global islom moliya sektorining barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda. 2024-yil holatiga ko'ra, IFSBning 191 nafar a'zosi mavjud bo'lib, ular orasida nazorat organlari, hukumatlararo tashkilotlar va bozor institutlari keng vakillikka ega.

2030-yil Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishda innovatsion moliyalashtirish mexanizmlaridan foydalanish tobora muhim o'rin egallamoqda. Malayziya, Saudiya Arabistoni, Indoneziya, BAA va Qatar kabi ilg'or islom moliyasi bozorlarida shakllangan deyarli 6 trillion dollarlik global aktivlar islomiy moliyaning "yashil kun tartibi"ni qo'llab-quvvatlashdagi ulkan salohiyatidan dalolat beradi. Islomiy moliyaning asosiy tamoyillari bo'lgan foizsiz moliyalashtirish, adolatli boylik taqsimoti hamda foyda va zararni sheriklik asosida bo'lishish tamoyili ekologik va ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytiradi.

Yashil iqtisodiyot va ekologik tashabbuslarni ilgari surishda islom moliyasi quyidagi yo'nalishlarda katta ahamiyat kasb etadi:

1. Foizsiz moliyalashtirish — yashil loyihalarni ekologik mas'uliyat va moliyaviy barqarorlik bilan uyg'unlashtirish imkonini yaratadi.

2. Murabaha va ijara instrumentlari — qayta tiklanuvchi energiya, energiya samaradorligi va “yashil” infratuzilma loyihalariga mo'ljallangan aktivlarni xarid qilish va ijaraga berish orqali rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi.

3. Musharaka va mudaraba — sheriklik asosidagi moliyalashtirish shakllari bo'lib, foyda va risklarni adolatli taqsimlash orqali barqaror iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi.

Islom moliyasi global kapital oqimlarini kengaytirish, tavakkalchilikni boshqarish va investorlarga shariatga mos investitsiya imkoniyatlarini yaratish orqali izchil rivojlanib bormoqda. Yaqin Sharq va Janubi-Sharqiy Osiyoda faoliyat yuritayotgan islomiy investorlar o'z likvid aktivlarini shariatga mos daromad manbalariga yo'naltirishga intilmoqda. Bu jarayon tartibga solish siyosati takomillashuvi, xususi sektorning faol ishtiroki va barqaror moliya tamoyillarining keng qo'llanilishi bilan yanada jadallashmoqda.

Xalqaro tijorat banklari ham moliyaviy portfellarini “yashillashtirish” bo'yicha katta qiziqish bildirmoqda va zarur hollarda shariatga mos moliyalashtirish formatlarini joriy qilmoqda. Bu esa global moliya tizimida islom moliyasining o'rnini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

MDH mamlakatlarida ham islomiy moliya sektori bosqichma-bosqich rivojlanmoqda. Xususan, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston shariatga mos bank xizmatlari bo'yicha faol tajriba to'plab, moliyaviy tizimni diversifikatsiya qilish va aholining muqobil moliyaviy ehtiyojlarini qondirish yo'lida salmoqli qadamlar tashlamoqda. MDH hududida islom moliyasi eng rivojlangan davlatlardan biri sifatida Qozog'iston e'tirof etiladi.

Qozog'istonda faoliyat yuritgan ilk islomiy bank — “Al Hilol Islom Banki” (2010) ushbu yo'nalishning muvaffaqiyatli rivojlanishiga asos solgan. Bankning Fitch Ratings va Moody's tomonidan berilgan yuqori reytinglari uning moliyaviy barqarorligi, ishonchiligi va xalqaro standartlarga mos boshqaruvga egaligini ko'rsatadi. Bugungi kunda bank jismoniy shaxslarga shariatga mos xizmatlarning keng turini taqdim etib, mamlakat moliya bozorida o'z mavqeini yanada mustahkamlab bormoqda.

Qozog'istonda 2000-yillardan boshlab islomiy moliyaga bo'lgan qiziqish izchil ortib bordi. 2003-yilda “Bank Turan Alem” islomiy moliya tamoyillariga mos xizmatlarni taklif etgan dastlabki moliya institutlaridan biri bo'ldi. 2009-yilda esa “Fattax Finance” birinchi islomiy brokerlik kompaniyasi sifatida bozorga kirib, ushbu segmentning rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shdi. Hukumati tomonidan qonunchilik bazasining takomillashuvi esa islomiy moliya tizimining yanada samarali rivojlanishiga keng imkon yaratdi.

Qirg'izistonda ham islomiy moliya bozori mustahkam o'sish sur'atlarini namoyon qilmoqda. Mamlakatning 1993-yilda Islom taraqqiyot bankiga a'zo bo'lishi shariatga mos moliyalashtirish imkoniyatlarini keng ochdi. “Eco Islamic Bank” tomonidan amalga oshirilayotgan loyihalar, xususan 2023-yilda moliyalashtirilgan 214 ta tashabbus, mamlakatda islomiy moliya segmentining izchil kengayib borayotganini ko'rsatadi.

O'zbekistonda ham islomiy moliya infratuzilmasi bosqichma-bosqich shakllanib, amaliy rivojlanish bosqichiga o'tmoqda. 2004-yildan boshlab Islom taraqqiyot banki bilan hamkorlikda energetika va sog'liqni saqlash sohalarida loyihalar moliyalashtirilishi ushbu yo'nalishning poydevorini yaratdi. O'zbekistonning Xususi sektorni rivojlantirish islom korporatsiyasiga (XSRIK) a'zo bo'lishi esa mamlakatda shariatga mos moliyalashtirish mexanizmlarining kengayishiga katta turtki berdi. XSRIK tomonidan umumiy qiymati 350 million dollardan ortiq loyihalar rejalashtirilgani islomiy moliya uchun yuksak istiqbollar ochib bermoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning IHTTIF Kengashining 43-sessiyasida bildirgan fikrlari islomiy moliya va iqtisodiy hamkorlik istiqbollari uchun yangi imkoniyatlarga boy strategik yo'nalishlarni belgilab beradi. Davlat rahbari islom olamining ulkan iqtisodiy, investitsion va energetik salohiyatini alohida e'tirof etib, ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanish, savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, moliyaviy integratsiyani kuchaytirish va transport infratuzilmasini takomillashtirish mintaqa taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqishini ta'kidlagan.

Bugungi global moliya bozorlarida yashil moliyaga qiziqish izchil ortib borayotgan bir sharoitda, islomiy banklar ham barqaror rivojlanish tamoyillariga mos innovatsion moliyaviy xizmatlar taklif etish orqali faol va ilg'or pozitsiyani egallamoqda. Yashil bank amaliyotlarini rivojlantirishda sertifikatlash mezonlarining joriy etilishi, xalqaro hisobot standartlaridan foydalanish va shaffoflikni ta'minlashning kengayishi ushbu sohaning barqaror o'sishiga katta turtki bermoqda.

Jumladan, Climate Bonds Initiative tomonidan ishlab chiqilgan yashil islom obligatsiyalarini sertifikatlash mexanizmi ekologik yo'nalishdagi loyihalarda qo'llanilayotgan shariatga mos moliyaviy vositalarning xalqaro talablarga mos va raqobatbardosh ekanini tasdiqlashda muhim o'rin tutadi. Shuningdek, Global Reporting Initiative (GRI) standartlari barqarorlik bo'yicha hisobotlarning eng samarali va keng qo'llaniladigan xalqaro modeli sifatida yashil moliya faoliyatining shaffofligini kuchaytiradi, ekologik ta'sir ko'rsatkichlarini ochiq, aniq va tushunarli shaklda bayon etish imkonini yaratadi.



## XULOSA VA TAKLIFLAR

Islom moliyasida mavjud ulkan imkoniyatlar ushbu sohaning yanada keng ko'lamda rivojlanishi uchun mustahkam zamin yaratadi. Soha ishtirokchilari o'rtasida islom moliyasi tamoyillarini chuqurroq anglash zarurati mavjud bo'lishiga qaramay, bu holat yangi o'quv dasturlarini joriy etish, malaka oshirish jarayonlarini kuchaytirish va iqlim moliyasi tashabbuslarini yanada samarali integratsiyalash uchun katta imkoniyatlarni ochadi. Shariatga mos moliyaviy vositalarni ishlab chiqish va ularni takomillashtirish jarayoni iqlim bilan bog'liq investitsiya loyihalarini samarali moliyalashtirish uchun yanada qulay shart-sharoit yaratadi. Moliyaviy amaliyotlar bo'yicha xalqaro standartlar takomillashib borayotgani esa islomiy moliya tashabbuslari samaradorligini oshirib, investorlar uchun yanada aniqroq yo'nalishlar belgilashga xizmat qiladi. Shariat tamoyillariga mos keladigan iqlim va yashil moliya loyihalarida ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy natijalarning uyg'un ravishda hisobga olinishi risk boshqaruvi tizimining izchil takomillashuviga turtki beradi. Siyosiy, iqtisodiy va tartibga soluvchi jarayonlarning rivojlanishi esa islomiy iqlim moliyasining kengayishida yangi strategik imkoniyatlarni yuzaga chiqaradi. Shu bois ushbu yo'nalishda innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va strategik sherikliklarni rivojlantirish istiqbollarni yanada kengaytiradi. Bu jarayonlar sohaga xos barcha vazifalarni izchil hal etish bilan birga, islom moliyasining iqlim moliyasi va barqaror rivojlanishdagi salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish uchun keng sharoit yaratadi. Yashil sukuklar, vaqf asosidagi ekologik tashabbuslar va boshqa islomiy moliyaviy vositalar iqlim bilan bog'liq loyihalarni qo'llab-quvvatlashda yuqori natijalar berib, sanoatning ijtimoiy va ekologik ta'sirini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Ushbu vositalar shariatga mos, foizsiz moliyalashtirish prinsiplariga tayanadi hamda risk va foydani sheriklikka asoslangan adolatli taqsimot orqali iqtisodiy va ekologik barqarorlikni mustahkamlaydi. Islom moliyasi tamoyillariga asoslangan yashil loyihalar iqtisodiy o'sishni barqaror yo'l bilan rag'batlantiradi, resurslarning adolatli va samarali taqsimlanishini ta'minlaydi, tabiiy muhitga zarar yetkazmaydigan iqtisodiy faoliyatni kengaytiradi va ekologik innovatsiyalar rivojiga munosib hissa qo'shadi. Ushbu jarayonni amalga oshirishda islomiy moliyaviy instrumentlarning yanada takomillashib borayotgani, kadrlar salohiyatining oshishi va standartlashtirilgan moliyaviy tizimlarning bosqichma-bosqich shakllanishi istiqbollarni yanada kengaytiradi hamda investorlar uchun yanada ishonchli qarorlar qabul qilish imkoniyatini yaratadi. Islom moliyasi tamoyillari asosida yashil loyihalarni moliyalashtirish O'zbekiston va boshqa davlatlar uchun iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash bilan birga ekologik farovonlikni ta'minlashda ham katta imkoniyatlar ochadi. Kelgusida ushbu yo'nalishda ilmiy-amaliy tadqiqotlarni kengaytirish, innovatsion moliyaviy instrumentlarni ishlab chiqish va davlatlararo hamkorlikni kuchaytirish islom moliyasi sektorining global maqomini mustahkamlashga xizmat qiladi. Natijada, islom moliyasining yashil iqtisodiyotga qo'shadigan hissasi tobora ortib, global barqaror rivojlanish maqsadlari — SDG 2030 doirasida belgilangan ustuvor vazifalarning bajarilishiga samarali hissa qo'shadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Gulyamova, Sh. (2025-yil). Islom darchalari asosida moliyalashtirishni joriy etish istiqbollari. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali.
2. Komilov, M. (2024-yil). Islom moliyasi orqali loyihalarni moliyalashtirish tahlili. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali.
3. Xalikov, U. R. (2023-yil). Mamlakat iqtisodiyotini islom moliya instrumentlari orqali rivojlantirish istiqbollari. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali.
4. Sattorova, N. G. (2023-yil). Exploring the Potential of Islamic Finance in Uzbekistan. Green Economy and Development, Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali.
5. Haydarov, O. (2023-yil). Investitsiya loyihalarini islom moliya instrumentlari orqali moliyalashtirish yo'llari. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali.
6. Bank Negara Malaysia. (2025-yil). Annual Report 2024: Promoting a Progressive and Inclusive Islamic Financial System. Kuala Lumpur.
7. Islamic Financial Services Board (IFSB). (2024-yil). Islamic Financial Stability Report. Kuala Lumpur.

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. № 12**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)